

MUHOFAZA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISH: EKOTURIZMNING ILMIY JIHATLARI VA MONVISO TRANSCHEGARAVIY BIOSFERA QO'RIQXONASI TAJRIBASI TAHLILI

Xayrullayeva Nilufarbegim Nematillo qizi

Buxoro davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi

xayrullayevan@gmail.com

Annotatsiya: Muhofaza qilish va barqaror rivojlanish o'rtasidagi muvozanatga asos bo'lgan ekoturizm masalasi 1980-yillarning oxiridan beri ilmiy muhokamalarning markazida bo'lib, so'nggi yillarda ushbu bahs-munozaralarda ekoturizm konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekoturizm tabiiy hududlarda amalga oshiriladigan, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlaydigan va bilim olish jarayonini o'z ichiga olgan turizm shakli sifatida ta'riflanadi, hamda ushbu turizm shakli muhofaza qilish va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi ideal mexanizm sifatida qaralsa-da, amaliyotda muayyan muammolarga duch keladi.

Ushbu maqola ekoturizmni barqaror rivojlanish dasturi orqali rivojlantirishga asos bo'lgan davlat Italiya va uning Monviso transchegaraviy biosferea qo'riqxonasi tajribasi tahliliga qaratilgan. Barqaror rivojlanish dasturiga ko'ra, ya'nikim ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik unsurlar bilan bir qatorda ta'limiy unisurni qo'llagan holda hududdagi ekoturistik destinatsiyalarni barqaror rivojlantirish imkoniyati chuqur o'rganilgan.

Italiyadagi Monviso transchegaraviy biosfera qo'riqxonasi (MBR) 2013-yilda YUNESKO tomonidan biosfera qo'riqxonasi sifatida tan olingan bo'lib, 2015-yilda Yevropa Barqaror Turizm Xartiyasiga (ECTS) qo'shilgan. Ushbu maqola Monviso tajribasi misolida ekoturizmning ta'lim vositasi sifatidagi roli, muammolari va O'zbekiston qo'riqxonalari uchun qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *ekoturizm, tabiatni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim, Monviso biosfera qo'riqxonasi, mahalliy hamjamiyat, turizm siyosati, Yevropa barqaro turizm xartiyasi.*

ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: НАУЧНЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОТУРИЗМА И АНАЛИЗ ОПЫТА ТРАНСГРАНИЧНОГО БИОСФЕРНОГО ЗАПОВЕДНИКА МОНВИЗО

Хайруллаева Нилуфарбегим Нематилло кизи

*Бухарский государственный университет, преподаватель кафедры туризма и
гостиничного хозяйства*

hayrullayevan@gmail.com

Аннотация: Вопрос экотуризма, являющийся основой баланса между охраной окружающей среды и устойчивым развитием, находится в центре научных дискуссий с конца 1980-х годов. В последние годы концепция экотуризма приобрела особое значение в этих дебатах. Экотуризм определяется как форма туризма, осуществляемая в природных районах, поддерживающая местные сообщества и включающая процесс обучения. Хотя этот вид туризма рассматривается как идеальный механизм для укрепления связи между охраной окружающей среды и устойчивым развитием, на практике он сталкивается с определёнными проблемами.

Данная статья посвящена анализу опыта Италии и её трансграничного биосферного заповедника Монвизо в развитии экотуризма в рамках программы устойчивого развития. Согласно программе устойчивого развития, наряду с социальными, экономическими и экологическими аспектами, было глубоко изучено применение образовательного элемента для обеспечения устойчивого развития экотуристических дестинаций.

Трансграничный биосферный заповедник Монвизо (MBR) в Италии был признан биосферным заповедником ЮНЕСКО в 2013 году и в 2015 году присоединился к Европейской хартии устойчивого туризма (ECTS). Данная статья направлена на анализ роли экотуризма как инструмента образования, его проблем и возможностей применения опыта Монвизо в заповедниках Узбекистана.

Ключевые слова: экотуризм, охрана природы, устойчивое развитие, экологическое образование, биосферный заповедник Монвизо, местное сообщество, политика в области туризма, Европейская хартия устойчивого туризма.

CONSERVATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: SCIENTIFIC ASPECTS OF ECOTOURISM AND AN ANALYSIS OF THE MONVISO TRANSBOUNDARY BIOSPHERE RESERVE EXPERIENCE

Khayrullayeva Nilufarbegim Nematillo kizi

Bukhara State University, Lecturer, Department of Tourism and Hospitality Management

hayrullayevan@gmail.com

Abstract: The issue of ecotourism, which forms the basis of the balance between conservation and sustainable development, has been at the center of scientific

discussions since the late 1980s. In recent years, the concept of ecotourism has gained significant importance in these debates. Ecotourism is defined as a form of tourism conducted in natural areas, supporting local communities, and incorporating an educational process. Although this form of tourism is considered an ideal mechanism for strengthening the link between conservation and sustainable development, in practice, it faces certain challenges.

This article focuses on analyzing the experience of Italy and its Monviso Transboundary Biosphere Reserve in developing ecotourism through a sustainable development program. According to the sustainable development program, alongside social, economic, and environmental factors, the application of an educational component for the sustainable development of ecotourism destinations has been thoroughly examined.

Italy's Monviso Transboundary Biosphere Reserve (MBR) was recognized as a biosphere reserve by UNESCO in 2013 and joined the European Charter for Sustainable Tourism (ECTS) in 2015. This article aims to analyze the role of ecotourism as an educational tool, its challenges, and the possibilities of applying the Monviso experience to Uzbekistan's protected areas.

Keywords: *ecotourism, nature conservation, sustainable development, environmental education, Monviso Biosphere Reserve, local community, tourism policy, European Charter for Sustainable Tourism.*

KIRISH

Ekoturizm bugungi kunda global miqyosda jadal rivojlanib, barqaror turizmning muhim tarmog'i sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Uning kengayishiga atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillari, mahalliy hamjamiyatlarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi omillar asosiy turtki bo'lmoqda. Sayyohlarning ekologik toza turizm mahsulotlariga bo'lgan talabi ortib borayotganligi, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda tabiiy muhitda dam olishga bo'lgan qiziqishning oshishi ekoturizmning yanada ommalashishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi, jumladan, virtual turlar va ekologik monitoring tizimlarining keng qo'llanilishi ekoturizmning samarali rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishining jadal davom etishi fonida uglerod izini kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish bo'yicha yangi strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, ekoturizm global turizmning 10-15% ulushini tashkil etib, yillik o'sish sur'ati 20% ni tashkil qilinmoqda [26]. Eng so'nggi statistik ma'lumotlarga asosanib aytganda, dunyo miqyosida ekoturizmga bo'lgan talab ortib bormoqda,

ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerika hududlarida ekoturistik sayohatlar nuqtai nazaridan sezilarli ulushni egallaydi. Ushbu sektor 2023-yilda 250 milliard AQSh dollaridan ortiq daromad keltirgan bo'lib, global miqyosda 500 dan ortiq turistik yo'nalish "Green Destinations" (Yashil destinatsiyalar) yoki "Global Sustainable Tourism Council" (Global barqaror turizm kengashi) kabi ekologik sertifikatlariga ega [24]. Bu esa ekoturizmning jozibadorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Italiya ekoturizm rivojlanishida yetakchi davlatlardan biri hisoblanib, mamlakat tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ekoturistik yo'nalishlari va himoyalangan hududlari bilan ajralib turadi. Hozirda Italiyada 24 ta milliy bog' va 1500 dan ortiq maxsus qo'riqlanadigan hududlar mavjud bo'lib, ularga Dolomit tog'lari, Toskana, Sitsiliya, Apennin tog'lari va Sardiniya kabi muhim ekoturistik markazlar kiradi. Mamlakat ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator strategik dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Masalan, "Green Italy" (Yashil Italiya) tashabbusi ekologik turizmni qo'llab-quvvatlash hamda uglerod izini kamaytirishga yo'naltirilgan hukumat dasturlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, ekologik sertifikatlash tizimi joriy qilingan bo'lib, turistik obyektlarning "Ecolabel EU" (Ekologik yorliq) kabi xalqaro sertifikatlariga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu esa ekoturizm faoliyatining barqaror turizm tamoyillariga mosligini ta'minlaydi [25].

Italiyada ekoturizmni rivojlantirish jarayonida mahalliy jamoalarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etib, sayyohlarga nafaqat tabiiy go'zalliklardan bahramand bo'lish, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sinash va ekologik turizm tajribasini boshdan kechirish imkoniyati ham taqdim etiladi. Mamlakatda ushbu sohaga ixtisoslashgan muhim tashkilotlar faoliyat yuritib, ular orasida "Legambiente" eng mashhur ekologik tashkilotlardan biri sifatida ajralib turadi. Ushbu tashkilot ekologik turizm tamoyillarini ilgari surish va ekoturizm rivojlanishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Italiya Milliy bog'lar tarmog'i (National Park Network) ekoturistik tadbirlarni qo'llab-quvvatlab, mamlakatdagi qo'riqlanadigan hududlarni saqlashga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshiradi.

Ekoturizmning barqaror rivojlanishida ekologik transport tizimlarining keng joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Italiya ekologik transport vositalari, jumladan, elektr transport va velosiped yo'laklarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali ekoturistik yo'nalishlarni yanada jozibador qilishga erishmoqda. Bu esa mamlakatdagi ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirish bilan birga, ekologik muvozanatni saqlashga ham xizmat qilmoqda.

Ekoturizmning bugungi rivojlanish tendensiyalari uning barqaror turizm tamoyillariga asoslangan holda o'sayotganligini ko'rsatmoqda. Global miqyosda ekoturizmning iqtisodiy va ekologik ahamiyati ortib borayotgani, hukumatlar tomonidan atrof-muhit muhofazasini ta'minlashga qaratilgan siyosatning

shakllanishiga turtki bermoqda. Italiya tajribasi esa ekoturizmni rivojlantirishning samarali modellaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ekologik barqarorlik va mahalliy hamjamiyatlarning integratsiyalashuvi asosida shakllangan ekoturistik strategiyalar kelgusida ekoturizm sektorining yanada mustahkam rivojlanishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekoturizm tashabbuslari tabiatni muhofaza qilish tamoyillari bilan uyg'un holda rivojlanib, Yevropa bo'ylab keng tarqalgan. Ushbu yondashuv tabiiy resurslarni saqlash va barqaror rivojlanish tamoyillarini uyg'unlashtirgani sababli, YUNESKO Biosfera qo'riqxonalari (BR) konsepsiyasiga mos keladi. 1970-yillarda biosfera qo'riqxonalari tushunchasi joriy etilganidan buyon, muhofaza qilish va barqaror rivojlanish integratsiyasi masalasi muhokama qilinib kelmoqda [17]. 1987-yilda BMTning Atrof-muhit va Rivojlanish bo'yicha Butunjahon Komissiyasi (Bruntland Komissiyasi) barqaror rivojlanishni "hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlarning ehtiyojlariga zarar yetkazmagan holda qondirish" deb ta'riflagan [3]. Tabiatni muhofaza qilish esa inson tomonidan ekotizimlar va biologik xilma-xillikdan foydalanishni barqarorlik nuqtai nazaridan boshqarish sifatida izohlangan.

Ilmiy adabiyotlarda biosfera qo'riqxonalarining "o'quv maydonchalari" sifatida belgilanishi tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish maqsadlarini uyg'unlashtirishga qanday ta'sir ko'rsatishi muhim ilmiy muammo sifatida ta'kidlanib kelinmoqda [6]. Dunyo bo'ylab ko'plab biosfera qo'riqxonalari tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xabardorlikni oshirish va mahalliy barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Italiyadagi Monviso Transchegaraviy Biosfera Qo'riqxonasi (MBR) shunday tashabbuslardan biri bo'lib, 2013-yilda YUNESKO tomonidan biosfera qo'riqxonasi sifatida tasdiqlangan va yaqinda Alohida muhofaza etiladigan hududlarda barqaror turizm bo'yicha Yevropa Xartiyasi (ECTS) a'zosiga aylangan [8]. Ushbu tadqiqot MBRda ekoturizmning tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi katalizator sifatida xizmat qilish imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Ekoturizm biosfera qo'riqxonalarida muhofaza qilish va rivojlanish manfaatlarini uyg'unlashtirishga yordam berishi mumkin, biroq samarali natijalarga erishish uchun institutsional hamkorlik, ekologik ta'lim va mahalliy jamoalarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi [21]. Shu sababli, ekoturizmni barqaror rivojlanish katalizatori sifatida yanada takomillashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar va strategik yondashuvlar zarur. Ekoturizm barqaror turizmning tabiiy muhit bilan cheklangan tarmog'i sifatida tushuniladi [21]. Ceballos-Lascurain tomonidan berilgan eng keng qabul qilingan ta'rifga ko'ra, ekoturizm nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga sayohat qilish bo'lib, uning asosiy maqsadi ushbu hududlarning tabiiy

landshaftlari, yovvoyi hayvonlari va o'simliklari, shuningdek, mavjud madaniy meroslarini o'rganish va baholashdan iborat [4, 5].

Jacobson va Robles ta'kidlaganidek, ekoturizm resurslarni, jumladan, landshaftlar, daryolar, o'rmonlar va yovvoyi tabiatni yuqori sifatda saqlashni talab etadi [12]. Biroq, Chiutsi va boshqalar ushbu ta'rifning yetarli emasligini, chunki u ekoturizmning madaniy va ekologik muhitga ta'sirini aniq belgilab bermasligini ta'kidlaydi [5]. Bundan tashqari, oldingi ta'riflarda iqtisodiy omillar kam yoritilgan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun ekoturizmning ijtimoiy-madaniy va ekologik barqarorligi bilan bir qatorda iqtisodiy barqarorlik ham muhim ekani ta'kidlangan [2]. McCauley esa bozor mexanizmlariga haddan tashqari bog'liq bo'lish ekoturizmni barqaror rivojlanishga olib kelmasligini, tabiatni muhofaza qilish jarayoni doimiy bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, biroq bozor mexanizmlari esa doimiy emas [14].

Eng keng qamrovli ekoturizm ta'rifi Xalqaro Ekoturizm Jamiyati (XEJ) tomonidan berilgan bo'lib, unda ekoturizm "atrof-muhitni muhofaza qiluvchi, mahalliy aholi farovonligini ta'minlaydigan va ta'lim-tarbiya jarayonini o'z ichiga olgan mas'uliyatli sayohat" sifatida belgilangan [23]. Ekoturizm kichik guruhlariga yo'naltirilgan kichik bizneslar orqali amalga oshirilishi va mahalliy aholining ishtirokini ta'minlashi orqali ekoturizm tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi potensial sifatida namoyon bo'ladi [7].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, biz quyidagicha ta'rif berdik, ekoturizm – tabiiy ekotizimlarni saqlash, biologik va madaniy xilma-xillikni muhofaza qilish bilan birga, mahalliy hamjamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan barqaror turizm shakli bo'lib, u tabiiy va madaniy meros obyektlariga minimal antropogen ta'sir ko'rsatgan holda, ekotizimlarning uzviyligini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda mahalliy jamoatchilikning iqtisodiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ekoturizm tushunchasini yanada kengroq anglash uchun ekoturistik destinatsiyalarga ham ta'rif berish lozim. Unga ko'ra, ekoturistik destinatsiya – tabiiy va madaniy resurslarni samarali boshqargan holda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan rekreativ imkoniyatlarni taqdim etish, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash hamda ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali sayyohlik faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashni anglatadi. Biosfera qo'riqxonalarida ilmiy, ekologik va madaniy sayohatlarni amalga oshirish, har bir hudud bo'yicha destinatsiyalarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo bo'ylab ko'plab biosfera qo'riqxonalar ekoturizmni tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xabardorlikni oshirish va mahalliy barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida qo'llamoqda [8]. Italiyadagi Monviso Transchegaraviy

Biosfera Qo'riqxonasi (MBR) ushbu tashabbuslarning namunasidir. Ushbu hudud 2013-yilda YUNESKO tomonidan biosfera qo'riqxonasi sifatida tasdiqlangan bo'lib, yaqinda Alohida muhofaza etiladigan hududlarda barqaror turizm bo'yicha Yevropa Xartiyasiga (ECTS) sazovor bo'ldi. Tadqiqot MBRda ekoturizmning tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi katalizator sifatida xizmat qilish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Parco del Monviso va Monviso Transchegaraviy Biosfera qo'riqxonasi

Parco del Monviso dastlab 1990-yilda Parco del Po Cuneese nomi bilan tashkil etilgan bo'lib, 2015-yilda Piemont hududida qo'riqlanadigan hududlarni boshqarish tizimi sifatida qayta tashkil etilgan va natijada Parco del Po Cuneese o'rniga Parco Naturale del Monviso deb nomlangan. Yangi Parco Naturale del Monviso hududi 8334 gektarga kengayib, avvalgi hududlar bilan birga Varaita vodiysidagi Aleve o'rmoni hamda Pellice vodiysidagi Pra-Barant qo'riqxonalarini o'z ichiga olgan [17].

2013-yilda Monviso hududi Italiyadagi birinchi Transchegaraviy Biosfera qo'riqxonasi sifatida e'lon qilingan, chunki shu paytda unga "egizak" bo'lgan fransuz qo'riqxonasi ham YUNESKO tomonidan tasdiqlangan [16]. Monviso Transchegaraviy Biosfera qo'riqxonasi (MBR) Italiyadagi to'qqizinchi biosfera qo'riqxonasi bo'lib, mamlakat hozirda jami 14 ta biosfera qo'riqxonasiga ega [21].

YUNESKO MBRni quyidagicha ta'riflaydi: Monviso hududi ekotizimlarning mozaikasini o'z ichiga oladi, bu yerda Monviso massivining 3841 metr balandlikdagi qurg'oqchil va toshloq manzaralaridan tortib, o'ziga xos o'rmon ekotizimlariga qadar joylashgan bo'lib, ushbu hududda Pinus Sembra kabi noyob daraxt turlari uchraydi. G'arbiy Alp tog'lari bo'ylab davom etuvchi Aleve o'rmoni qo'riqxonaning eng yaxlit va o'zgarmagan qismini tashkil etadi. Po daryosi bo'ylab esa, 2020 metr balandlikdagi Pian del Re manbasidan boshlanib, Casalgrasso munitsipaliteti orqali Torino viloyatiga oqib tushuvchi suv ekotizimlari shakllangan [13].

Turin Politehnika Universiteti bilan hamkorlikda CED-PPN (Tabiat parklarini rejalashtirish bo'yicha Yevropa hujjatlashtirish markazi) va Xalqaro barqaror rivojlanish akademiyasi bilan birgalikda ma'muriyat YUNESKOning Inson va Biosfera (MaB) dasturi doirasida boshqaruv rejasini ishlab chiqqan. Ushbu hujjatning ikkinchi qismi mahalliy muvaffaqiyatli tajribalarni tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda madaniyat va inson-muhit o'rtasidagi ijobiy munosabatlar barqaror rivojlanishning asosi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu amaliyotlar besh yo'nalish bo'yicha o'rganilgan: agrar biznes, hunarmandchilik, atrof-muhit va qayta tiklanuvchi energiya manbalari, turizm va madaniy meros. Har bir yo'nalish bo'yicha kuchli tomonlar, zaifliklar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlangan hamda turizm bilan bog'liq tahlillar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

2015-yilda MBR Yevropaning himoyalangan hududlarida barqaror turizm xartiyasini (ECTS) qabul qilgan bo'lib, ushbu hujjat qo'riqlanadigan hududlarni

samarali boshqarishning metodologik vositasi sifatida qaraladi. Xartiya EUROPARC Federatsiyasi tomonidan park hududlari hamda u yerda yashovchi va faoliyat yurituvchi aholiga g'amxo'rlik qilishni targ'ib etish maqsadida ishlab chiqilgan [1].

Yevropa Barqaror Turizm Xartiyasining tamoyillari ekoturizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim nazariy va amaliy asoslarni belgilab berib, turizmni ekologik barqarorlik, iqtisodiy manfaatdorlik va ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu tamoyillar asosida shakllangan ekoturizm nafaqat tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilishga, balki mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda resurslardan samarali foydalanish orqali turizm sohasining umumiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ekoturizmning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun boshqaruv tizimining optimallashtirilishi talab etiladi. Bunday yondashuv atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, uglerod izini minimallashtirish va mahalliy jamoalarni turizm faoliyatiga jalb etish kabi muhim masalalarni qamrab oladi [3].

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda Yevropa tajribasidan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, bu borada, eng avvalo, turizmni boshqarishning barqaror modeli ishlab chiqilishi va milliy strategiyalar bilan uyg'unlashtirilishi talab etiladi. Qo'riqxonalar va milliy bog'lar ekoturizm markazlari sifatida shakllantirilishi, ekologik ta'limning samaradorligini oshirish hamda mahalliy aholining faol ishtirokini ta'minlash zarur. Ekoturizmning iqtisodiy jihatlari tahlil qilinib, ekologik tadbirkorlik va yashil investitsiyalarni jalb qilish orqali uni barqaror rivojlantirish mumkin [8]. Bundan tashqari, resurslardan samarali foydalanish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish va turistik oqimni monitoring qilish orqali ekoturizmning uzoq muddatli istiqboli ta'minlanishi lozim. Shu bois, O'zbekiston ekoturizm sohasida Yevropa tamoyillaridan kelib chiqib, tabiiy va madaniy meros obyektlaridan barqaror foydalanish tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishi zarur [12].

Parco del Monviso hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida turizm sektorining asosiy jihatlari aniqlanib, uchta asosiy kategoriyaga ajratildi: kuchli tomonlar, zaif tomonlar va imkoniyatlar. Kuchli tomonlar sifatida hududning tabiiy va madaniy merosi, rivojlangan ekoturistik infratuzilma hamda mahalliy jamoalarning ekoturizmga bo'lgan qiziqishini keltirish mumkin.

Shu bilan birga, zaif tomonlar sifatida ekoturizm infratuzilmasining ayrim joylarda yetarlicha rivojlanmagani, ekologik ta'lim va axborot yetkazib berish tizimining takomillashtirishga ehtiyoji borligi aniqlangan. Biroq, ekoturizm sohasida yashil investitsiyalarni jalb etish, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish va barqaror turizm strategiyalarini joriy etish kabi imkoniyatlar mavjudligi aniqlangan [17].

Umuman olganda, ekoturizmning barqaror rivojlanishi uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, mahalliy jamoalarning faol ishtiroki hamda ekologik ta'lim

tizimining takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston ushbu tajribani o'ziga moslashtirish orqali milliy ekoturizm strategiyasini rivojlantirishga erishishi mumkin.

1-jadval

Turizm sohasining kuchli tomonlari, zaifliklari va imkoniyatlari

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar	Imkoniyatlar
Xizmatlarning xilma-xilligi va diversifikatsiyasi	Mahalliy reklama integratsiyasining past darajasi	MaB YUNESKO Brendini qo'shimcha qiymat sifatida qo'llash
Asosan yuqori sifatli turistik paketlar	Turistik tashabbuslarning hududlar o'rtasidagi zaif muvofiqlashtirilishi	Integratsiyalashgan va muvofiqlashtirilgan turizm targ'iboti
O'rtacha darajada yetarli va innovatsion turar joylar		Boshqa tarmoqlar bilan integratsiya
Barqaror turizm keng tarqalgan tushuncha sifatida qaraladi		Xususiy va davlat sektorlarining hamkorligini mustahkamlash
		Yangi xizmatlar yaratish va joriy etish
		Ilmiy-tadqiqot va sport turizmini rivojlantirish
		Xalqaro turistik marshrutlar bilan integratsiya

Manba: Mondino, E., & Beery, T. (2018). Ekoturizm barqaror rivojlanish uchun o'rganish vositasi sifatida: Monviso Transchegaraviy Biosfera Rezervati, Italiya misolida. Ekoturizm jurnali, 18(2), 107–121. <https://doi.org/10.1080/14724049.2018.1462371> ilmiy ishiga ko'ra muallif ishlanmasi.

Umuman olganda, Parco del Monviso hududining turizm salohiyatini oshirish uchun mavjud kuchli tomonlardan samarali foydalanish, zaif tomonlarni bartaraf etish va mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish talab etiladi. Mahalliy reklama va muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, MaB YUNESKO brendidan samarali foydalanish Parco del Monviso hududining xalqaro miqyosdagi turistik raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishi mumkin [1].

MBR uchun ushbu qaror YUNESKO tomonidan berilgan maqomning tabiiy natijasi bo'lib, bu maqomni hududiy turizmni rivojlantirish hamda iqtisodiy ustunlikka aylantirish imkoniyati sifatida ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, MBR hududi barqaror turizm tamoyillarini o'z ichiga olgan holda, tabiiy va madaniy merosni saqlash, mahalliy jamoalarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ekologik

barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirilishi lozim [1].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot sifat metodologiyasiga asoslangan bo'lib, unda holat tahlili (case study) yondashuvi qo'llangan. Tadqiqot doirasida Monviso Transchegaraviy Biosfera Qo'riqxonasi (MBR) va Yevropa Barqaror Turizm Xartiyasi (ECTS) doirasidagi ekoturizm tashabbuslari har tomonlama tahlil qilingan. Shuningdek, Elena Mondino va Thomas Beery tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida olib borgan intervyular tahlili, ekoturizmning turli jihatlarini o'rganishga yo'naltirilgan empirik ma'lumotlar to'plangan. Intervyular quyidagi asosiy mavzular atrofida o'tkazilgan:

- *Biosfera qo'riqxonalari va ekoturizm konsepsiyasini bilish darajasi* – tadqiqot ishtirokchilarining ushbu tizimlar haqida xabardorligi va ularning ekologik turizmga bo'lgan munosabatlari tahlil qilindi;

- *ECTS doirasidagi ekoturizm tashabbuslari* – ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning samaradorligi o'rganildi;

- *Ekoturizmning mahalliy iqtisodiyotga ta'siri* – hududiy iqtisodiyotga ekoturizm ta'sirining asosiy ko'rsatkichlari baholandi;

- *Tarmoq yaratish va xalqaro tajribalar bilan taqqoslash* – turizm sohasidagi ilg'or amaliyotlar va xalqaro tajribalar bilan solishtirish orqali strategik yondashuvlar taklif etildi.

Bundan tashqari, tadqiqot doirasida keng qamrovli ma'lumotlar yig'ilib, statistik tahlillar amalga oshirilgan. Ekoturizmning iqtisodiy ta'sirini aniqlash maqsadida Italiya Milliy Turizm Instituti (ISTAT, 2022) va EUROSTAT tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston qo'riqxonalari bo'yicha Davlat Ekologiya Qo'mitasi tomonidan berilgan ma'lumotlar chuqur tahlil qilinib, ularning umumiy kamchiliklari aniqlanib, xalqaro tajriba asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi ekoturizmning turli jihatlarini tizimli va chuqur tahlil qilishga imkon yaratib, ilmiy asoslangan natijalarga erishish uchun empirik ma'lumotlar va statistik yondashuvlarni uyg'unlashtirishga asoslangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasi Yevropa Barqaror Turizm Xartiyasi qabul qilingan davrdan hozirgi kungacha bo'lgan vaqt oralig'ini o'z ichiga oladi. Shu sababli, ushbu tadqiqot yagona tasvirlangan tahlil kategoriyasiga kirib, xronologik cheklovlar asosida o'rganilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ECTS tamoyillari va biosfera qo'riqxonalari funksiyalari o'rtasida muhim bog'liqlik mavjud. Shu asosda quyidagi tahliliy yondashuv shakllantirildi:

1. Hududiy muhofaza qilish va muhofaza qilish funksiyasi:

- Ushbu tamoyil biosfera qo'riqxonalarini uchun eng muhim elementlardan biri bo'lib, tabiiy muhitni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.
- Muhofaza qilish funksiyasi orqali genetik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari ishlab chiqiladi.
- Ekotizimlarning yaxlitligini saqlash hamda turizmning ekologik izlarini kamaytirish ushbu tamoyil doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanish funksiyasi:

- Mahalliy mahsulotlarning targ'iboti hududning iqtisodiy barqarorligiga bevosita hissa qo'shib, hududiy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.
- Mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va ekoturizm tarmog'ini kengaytirish imkoniyati yaratiladi.
- Mahalliy ishlab chiqarish va iste'mol madaniyatini qo'llab-quvvatlash natijasida tabiiy resurslardan samarali foydalanish omillari oshadi.

3. Qo'riqlanadigan hudud haqidagi bilimni oshirish va logistik qo'llab-quvvatlash funksiyasi:

- Ushbu tamoyil turizmni rivojlantirish, ekologik ta'limni mustahkamlash hamda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash orqali biosfera qo'riqxonalarining uzoq muddatli boshqaruv strategiyalariga zamin yaratadi.
- Logistik qo'llab-quvvatlash orqali qo'riqxonalar samarali monitoring, ta'limiy dasturlar hamda ekoturizmning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi mexanizmlarni shakllantiradi.
- Ushbu tamoyil ekoturizmning jamoatchilik orasida keng targ'ib qilinishi va uning ilmiy-innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatini oshiradi.


ECTS tamoyillari va biosfera qo'riqxonalarini o'rtasidagi bog'liqlik barqaror turizmning muhofaza qilish, iqtisodiy rivojlanish va ta'lim jarayonlari bilan uyg'unlashib borishini ko'rsatmoqda. Bu esa biosfera qo'riqxonalarini yanada samarali boshqarish va ekoturizmni uzoq muddatli barqaror rivojlantirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mahalliy aholi ekoturizmning ta'limiy ahamiyatini yetarlicha anglamaydi. Ishtirokchilarning aksariyati ekoturizmni faqat tabiiy muhitni muhofaza qilish vositasi sifatida ko'rib, uning iqtisodiy va ta'limiy salohiyatini e'tibordan chetda qoldirmoqda.

Shvetsiyadagi Vattenrike biosfera qo'riqxonasi bo'yicha tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ekologik ta'lim bilan bog'liq tashabbuslar ekoturizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Xuddi shunday, Monviso hududida maktablarda "Park shiori yaratish loyihasi" doirasida ekoturizm bo'yicha muvaffaqiyatli natijalar kuzatilgan.

Ko'pgina o'rganilgan ishlar yuzasidan shuni aytish mumkinki, mahalliy aholi ekoturizmni daromad manbai sifatida kam bahoydi. ISTAT statistik ma'lumotlariga ko'ra, Italiyada ekoturistlarning sarf-xarajatlari odatiy sayyohlarnikidan 20-30% yuqori ekani qayd etilgan [1].

O'zbekiston misolida esa, Zomin, Zarafshon va Ugom-Chatqol biosfera qo'riqxonalari ekoturizm uchun ulkan salohiyatga ega bo'lsa-da, mahalliy aholi ekoturizm orqali daromad olish imkoniyatlarini yetarli baholamaydi. Bundan tashqari, tarmoqlashuv va hamkorlik zarurligi ko'plab intervyu ishtirokchilari tomonidan ta'kidlangan. Monviso tajribasi asosida integratsiyalashgan turistik marshrutlarni rivojlantirish muhim strategik yo'nalish sifatida belgilangan (1-rasm).



1-rasm. Ekoturistik destinatsiyalarni rivojlantiruvchi omillar

Manba: O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, O'zbekiston biosfera qo'riqxonalarida olib borilgan tadqiqotlar natijalari quyidagicha:

- *Biosfera qo'riqxonalari maqsadlarini bilish*: O'zbekistondagi Qizilqum, Zarafshon va Hisor qo'riqxonalari tabiiy muhitni saqlab qolish va ekoturizm orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Italiyadagi Monviso Biosfera Qo'riqxonasi tajribasidan kelib chiqib, ushbu qo'riqxonalarda ekologik turizmni rivojlantirish orqali tabiiy resurslarni himoya qilish va turizm daromadlarini oshirish mumkin;

- *ECTS (Yevropa Barqaror Turizm Xartiyasi) talablarini baholash*: O'zbekiston qo'riqxonalari ekoturizmni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali ECTS talablariga javob berishi mumkin. Bu esa turizm infratuzilmasini yaxshilash va xalqaro sayyohlarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi;

- *Ekoturizmning ta'limiy jihatlarini o'rganish*: Hisor qo'riqxonasi kabi hududlarda sayyohlar uchun ekologik ta'lim markazlari tashkil etilishi mumkin. Bu

jarayonda Gran Paradiso Milliy Parki tajribasidan foydalanib, turistik tadbirlarga atrof-muhitni saqlashga qaratilgan ma'lumotlar kiritilishi lozim;

- *Mahalliy aholining ekoturistik destinatsiyaga munosabati:* Zarafshon qo'riqxonasida mahalliy aholi bilan hamkorlik qilish orqali ularning ekoturizmga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Italiyadagi qo'riqxonalarda mahalliy aholining faol ishtiroki turizm xizmatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham mahalliy tadbirkorlarni ekoturizmga jalb qilish orqali barqaror daromad manbalarini yaratish mumkin;

- *Ilmiy-tadqiqot o'tkazish uchun yaratilgan sharoit:* Italiya qo'riqxonalari ekologik tadqiqotlarni faol qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekistondagi ekoturistik hududlarda ham ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'riqxonalarda ekologik monitoring tizimlarini yaratish lozim;

- *Destinatsion hudud maqomiga kirish imkoniyatlari:* O'zbekiston qo'riqxonalari ekoturistik markazlar sifatida xalqaro maqomga ega bo'lishi uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish va turizmni rag'batlantirish dasturlarini amalga oshirish zarur. Dolomitlar hududi kabi jahon merosi obyektlariga kirish imkoniyatlari yaxshilanganidek, O'zbekistondagi qo'riqxonalarda ham qulay sharoitlar yaratish orqali ularning sayyohlik jozibadorligini oshirish mumkin.

Ekoturistik destinatsiyalarni rivojlantiruvchi omillar ekoturizmning nafaqat barqaror turizm mexanizmi, balki o'quv vositasi sifatida ham katta salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ekoturizm tabiiy ekotizimlarni saqlash va turizm faoliyatini inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni buzmaganda rivojlantirish imkonini beradi. YUNESKO biosfera qo'riqxonalari tamoyillariga muvofiq, ekoturizm nafaqat tabiiy hududlarni saqlashga, balki mahalliy jamoalarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Monviso tajribasi shuni ko'rsatadiki, biosfera qo'riqxonalari hududida ekoturistik tashabbuslar ijobiy natijalarga olib kelishi uchun institutsional hamkorlik va boshqaruv tizimini shakllantirish, mahalliy jamoalarni jalb qilish hamda ekoturizm orqali ekologik ta'limni rivojlantirish zarur.

Italiya, xususan, Monviso biosfera qo'riqxonasi ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha Yevropa Barqaror Turizm Xartiyasi (ECTS) tamoyillariga asoslangan strategiyani muvaffaqiyatli joriy etgan. Ushbu model O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish kerak deb hisoblaymiz:

- *Milliy strategiya darajasida rivojlantirish:* O'zbekistonning biosfera qo'riqxonalari (Zomin, Zarafshon, Ugom-Chatqol) Monviso modelidan foydalanib, ekoturistik destinatsiyalar sifatida shakllantirilishi lozim;

- *Iqtisodiy daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish:* ISTAT ma'lumotlariga ko'ra, Italiyada ekoturistlarning xarajatlari oddiy sayyohlarnikidan 20-30% ko'proq bo'lib, bu mahalliy iqtisodiyot uchun muhim moliyaviy oqimni ta'minlaydi. O'zbekistonda esa ekoturizmning iqtisodiy samaradorligi yetarli darajada

o'rganilmagan. Shunday ekan turizmning har bir yo'nalishi bo'yicha statistic ma'lumotlarni hamda daromadlarni ko'rsatish kerak, shunga ko'ra oqsayotgan destinatsiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqsa bo'ladi;

- *Ekologik turizmga ixtisoslashgan sertifikatlash tizimini joriy etish:* Italiyada "Ecolabel EU" kabi sertifikatlash tizimlari mavjud bo'lib, ular ekoturizmni barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham milliy yoki xalqaro ekologik sertifikatlar joriy etish zarur.

Shuningdek, ekoturizmning iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish va ularga tadbirkorlik imkoniyatlarini yaratish lozim. Mahalliy hunarmandchilik, gastronomik turizm va ekologik mahsulotlarni rivojlantirish Monviso tajribasidan olingan muhim xulosalar hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ekoturizm salohiyatini xalqaro darajada keng targ'ib qilish, xalqaro ekoturistik tarmoqlarga integratsiyalash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali biosfera qo'riqxonalari hududlarida barqaror turizmni yo'lga qo'yishi mumkin. Bu jarayonda ekologik ta'limni rivojlantirish va ekoturizmni milliy strategiya darajasida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ekoturizmni boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish va milliy ekologik sertifikatlash tizimini yaratish kelgusidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qilishi lozim. Ekoturizmni faqat tabiiy muhitni muhofaza qilish vositasi sifatida emas, balki barqaror iqtisodiy rivojlanish va mahalliy hamjamiyatlarning farovonligini ta'minlashning muhim elementi sifatida qarash lozim. Bu yondashuv O'zbekistonda barqaror turizmni yo'lga qo'yish va mahalliy hamjamiyatlar manfaatlarini ta'minlash uchun ishonchli asos yaratadi.

O'zbekistonning tabiiy va madaniy meros ob'ektlarini ekoturistik destinatsiyalarga aylantirish orqali turizm sektorining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Monviso tranchejaraviy biosfera qoriqxonasini o'rganish natijasida Italiya tajribasini O'zbekistonga qo'llash yuzasidan quyidagi takliflarni berib o'tamiz:

- O'zbekistonda ekoturizmni milliy strategiya darajasida rivojlantirish;
- Ekoturizm va ekologik ta'limni integratsiya qilish.
- Biosfera qo'riqxonalari hududida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, barqaror transport tizimlarini joriy etish;
- Mahalliy aholi va tadbirkorlarni jalb qilish orqali ekoturizm loyihalarini amalga oshirish;
- Ekoturizm bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va moslashtirish;

- Ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini baholash va strategik rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash;
- Mahalliy jamoalar va ekoturizm o'rtasidagi o'zaro aloqalarni chuqur o'rganish;
- Ekologik sertifikatlash tizimlari va ekoturistik destinatsiyalarni boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beery, T., & Jonsson, K. I. (2015). Atrof-muhit ta'limi va munosabatlari: Affektiv bog'liqlik va ekologik savodxonlik roliga urg'u. Xalqaro atrof-muhit va ilmiy ta'lim jurnali, 10(9), 141-156.
2. Buckley, R., Pickering, C., & Weaver, D. (2003). Tabiatga asoslangan turizm, atrof-muhit va yer boshqaruvi. CABI Publishing.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit va Rivojlanish bo'yicha Jahon Komissiyasi (1987). Bizning umumiy kelajagimiz. Oksford: Oxford University Press.
4. Ceballos-Lascurain, H. (1987). Ekoturizmning kelajagi. Mexico Journal, 1(4), 13-14.
5. Chiutsi, S., Mukoroverwa, M., Karigambe, P., & Mudzengi, B. K. (2011). Janubiy Afrikada ekoturizm nazariyasi va amaliyoti. Mehmonxona boshqaruvi va turizm jurnali, 2(2), 14-21.
6. Coetzer, K. L., Witkowski, E. T., & Erasmus, B. F. (2013). Biosfera rezervatlarini global ko'rib chiqish: samarali muhofaza chorasi yoki byurokratik yorliq? Biologik sharhlar, 88(2), 565-582.
7. Global Rivojlanish Tadqiqot Markazi (n.d.). Ekoturizm va barqaror turizm. <http://www.gdrc.org>.
8. Hearne, R. R., & Santos, C. A. (2005). Gvatemaladagi Maya Biosfera Rezervatida ekoturizm rivojlanishiga sayyohlar va mahalliy aholining munosabati. Atrof-muhit, rivojlanish va barqarorlik, 7(3), 303-318.
9. ISTAT (2022). Italiya Milliy Statistika Instituti - Turizm va atrof-muhit bo'yicha hisobot.
10. Jacobson, S. K., & Robles, R. (1992). Ekoturizm, barqaror rivojlanish va muhofaza ta'limi: Belizda turistik yo'riqchilar tayyorlash dasturining ishlab chiqilishi. Atrof-muhit boshqaruvi, 16(5), 701-713.
11. Kilichov, M. (2024). The silk road heritage enhancement for local sustainable tourism development in Bukhara (Uzbekistan). Analysis and diagnosis about the current situation (Doctoral dissertation, Universitat Politècnica de València).
12. Киличов, М. Х. (2017). Особенности экологического туризма и экологические ресурсы. In **СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ** (pp. 182-185).

13. Maikhuri, R. K., Rana, U., Rao, K. S., Nautiyal, S., & Saxena, K. G. (2000). Nanda Devi biosfera rezervati himoya hududlarida ekoturizmni rivojlantirish: Aholi va siyosat o'rtasidagi nizolarni hal qilish imkoniyati. Barqaror rivojlanish va dunyo ekologiyasi bo'yicha xalqaro jurnal, 7(4), 333-342.
14. Mondino, E., & Beery, T. (2018). Ekoturizm barqaror rivojlanish uchun o'rganish vositasi sifatida: Monviso Transchegaraviy Biosfera Rezervati, Italiya misolida. Ekoturizm jurnali, 18(2), 107-121. <https://doi.org/10.1080/14724049.2018.1462371>.
15. Monviso Piemonte. (2013). Monviso Transchegaraviy Biosfera Rezervati. <http://www.parcomonviso.eu>.
16. Nguyen, N. C., Bosch, O. J., & Maani, K. E. (2011). Biosfera rezervatlarida barqaror rivojlanish uchun "o'rganish laboratoriyalarini" yaratish: Tizimiy fikrlash yondashuvi. Tizim tadqiqotlari va xulq-atvor fanlari, 28(1), 51-62.
17. Schliep, R., & Stoll-Kleemann, S. (2010). Markaziy Yevropadagi biosfera rezervatlarining boshqaruvini baholash. Yer foydalanish siyosati, 27(3), 917-927.
18. Schultz, L., Duit, A., & Folke, C. (2011). Biosfera rezervatlarining jahon tarmog'ida ishtirok, moslashuvchan boshqaruv va boshqaruv samaradorligi. Jahon rivojlanishi, 39(4), 662-671.
19. UNESCO (2013). Inson va biosfera dasturi: Biosfera rezervatlari uchun yo'riqnoma va mezonlar. <https://www.unesco.org>.
20. UNESCO (2016). Biosfera rezervatlari: Barqaror rivojlanish uchun o'rganish joylari. Parij: UNESCO Press.
21. WWF (n.d.). Ekoturizm va tabiatni muhofaza qilish. <https://www.wwf.org>.
22. Xalqaro Ekoturizm Jamiyati (2015). Ekoturizm nima? <https://ecotourism.org>.
23. Yuan, M., Dai, Z., & Wang, N. (2008). Xitoyda biosfera rezervatlari barqaror rivojlanish uchun o'rganish joylari sifatida. Ambio, 37(4), 305-309.
24. https://environment.ec.europa.eu/topics/circular-economy/eu-ecolabel/eu-ecolabel-tourist-accommodation_en
25. <https://www.precedenceresearch.com/ecotourism-market>
26. <https://www.unwto.org/tourism4sdgs>